

**BOSHLANG'ICH SINFDA SO'Z TARKIBI VA YASALISHINI
O'RGATISH USULLARI**

Bekpulatova Sabina Sultonovna
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti magistranti

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda ta'lim tizimida boshlang'ich sinfdan boshlab bolaning lug'at boyligini oshirish va gapirish, o'z fikrini mustaqil bayon etishlari uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari asosiy o'rinni egallamoqlar. Shu sabab, ushbu maqolada so'z yasalishining sintaktik (kompozitsiya) usuli, morfologik (affiksasiya) usuli va yasash bosqichlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: morfologik (affiksasiya) usuli, sintaktik (kompozitsiya) usuli, o'zak ,o'zakdosh, yasovchi qo'shimch, yasamalar, "FSMU" texnologiyasi, kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash.

Bugungi jadal rivojlanib borayotgan zamonda yashar ekanmiz har birimiz ta'lim olishga va unda amada qo'llashga o'z hissamizni qo'shishimiz muhim hisoblanadi. Ayniqsa ta'lim sifatini yaxshilash avvalo o'qituvchining o'zidan, o'z ustida ishlashidan va bilimlarini mustahkamlab san'at asari kabi o'quvchilarga yetkazishdan iborat. Bu borada yurtboshimiz – Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi, – deydi Shavkat Mirziyoyev.

Boshlang'ich sinflarda morfologiyadan „ot“, „sifat“, „son“, „fe'l“, „kishilik olmoshi“ tushunchalarini; siktaksidan „gap“, „ega“, „kesim“, „ikkinchi darajali bo'lak“, „uyushiq bo'lak“, „undalma“ kabi tushunchalarni; so'z yasalishidan „o'zak“, „qo'shim cha“, „o'zakdosh so'zlar“ kabi tushunchalarni shakllantirish ustida ish olib boriladi. O'qituvchi tushunchalarni shakllantirish jarayonini boshqarish, o'quvchilar aqliy faoliyatini to'g'ri tashkil etish uchun tushuncha nimaligini, tushunchani bilib olish jarayonining xususiyatlarini, tushunchani o'zlashtirish qanday sharoitda natijaliroq bo'lishini ko'z oldiga aniq keltirishi lozim.

So'z yasalishi mavzusi bugungi kunda 2-sinfdanoq darsliklarga kiritilgan. Bu esa bu mavzuning naqadar dolzarb va muhim ekanligini anglatadi. Bolalar maktabga kelgan ilk kunlaridanoq yangi so'zlarni o'rgana boshlaydilar. Har bir so'zning ma'nosi qo'llanish o'rnini o'rganadilar. Bu so'zlar amalda qo'llanayotgan so'zlar, yasama so'zlar yoki chet tilidan o'zlashgan so'zlar bo'lishi mumkin. Tilda so'z yasash vositalari va usullari xilma-xil. O'zbek tilida so'z yasalishining asosiy ikki usuli mavjud.

1. Morfologik (affiksasiya) usuli.

2. Sintaktik (kompozitsiya) usuli.

O`zak va negizga so`z yasovchi qo`shimchalar qo`shish bilan yangi so`z yasash morfologik usul bilan so`z yasash deyiladi. So`z yasashida qo`shimchalar ishtirok etganligi uchun bu usul affiksatsiya usuli hisoblanadi. So`z yasovchi qo`shimchalar o`zakka : gulli, gulla, ishla, paxtakor, shuningdek negizga: bilimli, hosildorlik, chidamlilik ham qo`shiladi. So`z yasovchi qo`shimchalar asosan o`zak va negizdan keyin qo`shiladi. O`zakdan oldin qo`shiluvchi -old yasamalar o`zbek tili uchun xos emas. Biroq sifat turkumiga mansub bir qator so`zlarning yasashida ola qo`shimchalar ishtirok etadi. Masalan badavlat, serhosil, nohaq kabi. Morfologik usulda so`z yasashdagi muhim shartlardan biri so`z bilan yangi yasama orasida bog`liqlik bo`lishdir. Masalan, oshpaz, gulzor so`zlaridagi o`zak va yasovchi qo`shimchalar orqali hosil bo`lgan qismlar: osh-oshpaz, gul-gulzor ma`no jihatidan bir-biriga bog`liqdir. Morfologik usul bilan so`z yasashining shakllari ham rang -barang. Masalan, paxtakor, so`zida o`zak + qo`shimcha, serdaromad so`zida qo`shimcha+ o`zak, bil-im-li so`zida o`zak + negiz+ qo`shimcha, nohaq lik so`zida

qo`shimcha + o`zak+ qo`shimcha shakllari mavjud. Morfologik usul bilan so`z yasashi ot, sifat, fe`l va ravish turkumlari uchun xos.

Sintaktik usul bilan so`z yasashi ham unumdor usullaridan sanaladi. Ikki yoki undan ortiq so`zlarning o`zaro qo`shilishi natijasida so`z yasashi sintaktik usul bilan so`z yasashi deyiladi. Sintaktik usul bilan qo`shma va juft so`zlar yasaladi. O`zbek tilida bulardan tashqari so`z yasashining yana bir qator usullari mavjud. Chunonchi, bir turkumdagi so`z boshqa turkumga ko`chadi va o`z ma`nosini o`zgartiradi. Masalan, barno (sifat), Barno (ot), to`xta (fe`l), To`xta (ot). Shuningdek, bir turkumdagi o`zaro so`z o`z ma`nosini o`zgartirishi, boshqa ma`no ifodalashi mumkin. Masalan, uzdi (ipni uzdi), uzdi (orani uzdi) yozdi (xat), yozdi (barg), yetdi (manzilga), yetdi (maqsadga). So`z yasashidagi bu usul lug`aviy -semantik usul deyiladi.

2-sinf ona tili darsligida so`z yasashining affiksatsiya usuliga doir qoida berib o`tilgan. Bir nechta mustaqil so`zlardan yangi so`z yasash mumkin. Masalan, atir so`ziga gul so`zi qo`shilsa, 'atirgul' degan yangi so`z hosil bo`ladi. Buni so`z yasashi deymiz. Bu qoida ancha sodda va ravon qilib bolalarga tushunarli tarzda yoritilgan. Bundan tashqari darslikda muz+qaymoq, tuya+qush, tom+orqa, gul+qaychi, sher+yurak, bilak+uzuk kabi so`zlarga gaplar bilan misollar berilib o`quvchilarga mustaqil ravishda gap tuzish topshirig'i berilgan. Bu topshiriq bolalarning yangi so`zning ma`nosini tez tushunishlariga va so`z yasashi mavzusini mustahkamlashga yordam beradi.

Morfologik tahlilning vazifasi hozirgi o'zbek tilida so'z qanday ma'noli qismlardan tuzilganini aniqlashdir. Morfologik tahlil 3-sinfdan boshlanadi. Bu sinfda 6'quvchilarga o'zakdosh so'zlar, o'zak o'zakdosh so'zlarning umumiy qismi ekani, so'z yasovchi qo'shimchalar va so'z o'zgartuvchi (shakl yasovchi) qo'shim chalar

haqida elementar ma'lumot beriladi.

Yasama so'zning tarkibi. Yasama so'zning tarkibi uni tashkil etuvchi qismlardan iborat bo'ladi. Yuqorida ko'rdikki, yasama so'z, so'z yasalish asosiga so'z yasovchini qo'shish bilan hosil qilinadi. Binobarin, har bir yasama so'z anashu ikki qismdan iborat bo'ladi, ya'ni so'z yasalish tarkibi, so'z yasalish asosi va so'z yasovchidan tuziladi. Yasama so'z, tub so'z, shuningdek, yasama so'zdan hosil qilinishi mumkin.

So'z tarkibi to'rt bosqichda o'rganiladi:

Birinchi bosqich - so'z yasalishini o'rganishga tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichning vazifasi — o'quvchilarni bir xil o'zakli so'zlarning ma'no va tuzilishiga ko'ra bog'lanishini tushunishga tayyorlash

Ikkinchi bosqich — bir xil o'zakli so'zlamning xususiyatlari va barcha morfemalarning mohiyati bilan tanishtirish. Bu bosqichning asosiy o'quv vazifasi — so'zlarning ma'noli qismlari sifatida o'zak, so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar bilan tanishtirish, „o'zakdosh so'zlar" tushunchasini shakllantirish, bir xil o'zakli so'zlarda o'zakning bir xil yozilishini kuzatish hisoblanadi.

Uchinchi bosqich — o'zak, so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalarning xususiyatlari hamda tildagi ahamiyatini o'rganish metodikasi. Bu bosqichning o'quv vazifasiga „o'zak“, „so'z yasovchi qo'shimcha“, „shakl yasovchi qo'shimcha“ tushunchalarini shakllantirish, so'zning leksik ma'nosi bilan morfemik tarkibi o'rtasidagi bog'lanish haqidagi tasawurlarni o'stirish, o'zakda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshli so'zlarni to'g'ri yozish malakasini shakllantirish, nutqda so'z yasovchi qo'shimchasi bor so'zlarni ongli ishlatish ko'nikmasini o'stirish kiradi.

To'rtinchi bosqich — so'z turkumlarini o'rganish bilan bog'liq

holda so'zning tarkibi ustida ishlash (3-, 4-sinflar). So'zning morfemik tarkibini o'rganish tizimida bu bosqichning maqsadi so'z

yasovchi qo'shimchani so'z yasashdagi ahamiyati va shakl yasovchi qo'shimchani so'z shaklini o'zgartirishdagi ahamiyati haqidagi

bilimni chuqurlashtirish; o'quvchilarni ot, sifat, fe'llarning yasalish xususiyatlarini tushunishga tayyorlash hisoblanadi.

So'z tarkibiga ko'ra tahlil quyidagicha o'tkazilishi mumkin:

1. So'zga so'roq berish va u nimani anglatishini bilish.
2. O'zakni aniqlash. Buning uchun so'zga o'zakdosh so'zlar tanlash. O'zakdosh so'zlarni taqqoslash va umumiy qismi (o'zak)ni aniqlash.
3. So'z yasovchi qo'shimchani aniqlash. Bu yangi so'z yasash uchun xizmat qilishini aytish.
4. So'z o'zgartuvchi (shakl yasovchi) qo'shimchani aniqlash.

Bu so'zni boshqa so'z bilan bog'lash uchun xizmat qilishini aytish. 3-sinfda

„So'zning tarkibi" mavzusi to'liq o'rganilgach, gulzorso'zini so'z tarkibiga ko'ra og'zaki tahlil qilish tartibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Qaysi so'z turkumi ekanini bilaman. Gulzor so'zi nima? so'rog'iga javob bo'ladi, narsani bildiradi, bu — ot.

2. O'zakni aniqlayman. Buning uchun o'zakdosh so'zlar tanlayman: gulzor, gulli, gulsiz, gulla. Ularni solishtirib, umumiy qismini topaman — gul. Bu — o'zak.

3. So'z yasovchi qo'shim chani aniqlayman, gulzor so'zi gul so'ziga -zor so'z yasovchi qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan.

4. Bu so'zda so'z o'zgartuvchi qo'shim cha yo'q.

So'z tarkibiga ko'ra tahlildan so'ng shunday ko'rinish hosil bo'ladi: gul+zor.

4-sinfda paxtakorga so'zini so'z tarkibiga ko'ra og'zaki tahlil qilish tartibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Paxtakorga — ot.

2. O'zakni aniqlayman. Buning uchun o'zakdosh so'zlar tanlayman: paxtakor, paxtazor. Solishtiraman. Umumiy qism - paxta. Bu — o'zak.

3. So'z yasovchi qo'shimchani aniqlayman: paxtakor so'zi paxta so'ziga -kor so'z yasovchi qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan.

4. So'z o'zgartuvchi (shakl yasovchi) qo'shimchalarni aniqlayman: -ga—so'z o'zgartuvchi qo'shimcha, kelishik qo'shimchasi.

4-sinfda ishladim so'zini so'z tarkibiga ko'ra og'zaki tahlil tartibi:

1. Ishladim — fe'l.

2. O'zakni aniqlayman. O'zakdosh so'zlar tanlayman: ishla, ishli, ishsiz, ishchan. Solishtiraman. Umumiy qism — ish. Ish — o'zak.

3. So'z yasovchi qo'shimchani aniqlayman: ishla fe'li ish so'ziga -la qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan. -la — fe'l yasovchi qo'shim cha.

4. So'z o'zgartuvchi (shakl yasovchi) qo'shim chani aniqlayman: -di — o'tgan zam on qo'shim chasi, -m — shaxs-son qo'shim chasi, I shaxs, birlik: ishladim.

So'z tarkibiga ko'ra tahlildan mustaqil mashq sifatida foydalanish ham mumkin. So'zni morfologik tahlil qilish uning lug'aviy ma'nosini tushunishda, morfemalarni to'g'ri yozishda o'quvchilarga yordam beradigan muhim vositadir.

Bolalarga so'z yasalishi mavzusini o'rgatish jarayonida "FSMU" texnologiyasidan foydalanish samarali hisoblanadi. Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etish hamda o'quv jarayonini bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini asoslashga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga baxs-munozara madaniyatiga o'rgatadi.

Maqsad: Ushbu texnologiya tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z

fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

O'tkazilish tartibi:

1. FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tayyorlanadi.

F – fikringizni bayon eting.

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating.

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi misol, dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

2. Tinglovchilar bilan bahs mavzusini yoki muammoni belgilab oling. Mavzudan kelib chiqqan holda yasalgan va tub so'zlar aralashgan holda o'quvchilarga taqdim etiladi. O'quvchilar esa ularni sodda yoki yasama ekanligini aniqlashlari lozim.

3. Kichik guruhlariga bo'ling va ularga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqating.

4. Kichik guruhlariga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan xolda 4 bosqich bo'yichayozishlarini taklif eting.

5. Kichik guruhlarini yozgan fikrlarini o'qib himoya qilishlarini so'rang.

6. O'qituvchi tomonidan muammo bo'yicha fikrlar umumlashtiriladi.

Xulosa

Boshlang'ich sinfda o'quvchilar so'zning yangi so'z hosil qilishga yordam beradigan qismi haqida bilib olgan sari ularda so'z yasalishi haqidagi tasavvur chuqurlashib boradi. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda so'zning morfemik tarkibi va so'z yasalishini o'rgatish o'quvchilarning har bir so'zga ongli munosabatda bo'lishlarini ta'minlaydi, so'z tarkibi va uning yasalishi haqidagi dastlabki „o'zak“, „qo'shimcha“, „o'zakdosh so'zlar“ kabi tushunchalarni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1)Sh.M.Mirziyoyev «Yangi O'zbekiston Strategiyasi» 2021-yil
- 2)Sh.S.Shoyimova, M.K.Xoshimova, Sh.R.Mirzayeva, M.M.Qo'ziboyeva Ta'lim texnologiyalari – Darslik. – T.: «IJOD PRINT», 2020.-239 bet.
- 3) Rahimov S., Umurqulov . Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik – Toshkent, 2003.
- 4) Ona tili o'qitish metodikasi, Karima Qosimova|, Safo Matchonov,235-bet Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharofjon Sariyev.Toshkent «NOSIR» nashriyoti 2009
- 5) A.Hojiyev. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. –Toshkent: O'qituvchi, 2007. 17-bet